

## BADIY ADABIYOTDA DINIY G'OYA VA MAFKURANING O'RNI

### HAMDA AHAMIYATI

**Ahmadova O'g'iloy Ozodqul qizi**

Samarqand davlat universiteti magistranti

#### ***ANNOTATSIYA***

*Ushbu maqolada badiiy adabiyotda diniy g'oyalari hamda aqidalarning roli hamda ahamiyati, dinning adabiyotga singish jarayoni va ta'sir kuchi, shuningdek, adabiyotning yangi bosqichi, badiiy asarning diniy masalalar asosiga qurilayotganlik masalasi hamda bugungi davr shaxsi ruhiyatiga diniy-ma'rifiy adabiyotning ta'siri haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** adabiyot, din, e'tiqod, ruhiyat, g'oya, mafkura.

#### ***АННОТАЦИЯ***

*В данной статье говорится о роли и значении религиозных идей и убеждений, влиянии религии на литературу, а также о новом этапе развития литературы, вопросе создания произведения на основе религиозной проблематики, интерпретации религиозных - просветительская литература о психике современного человека.*

**Ключевые слова:** литература, религия, вера, духовность, идея, идеология.

#### ***ABSTRACT***

*This article talks about the role and importance of religious ideas and beliefs, the influence of religion in literature, as well as the new stage of literature, the issue of the creation of a work on the basis of religious issues, and the interpretation of religious-enlightenment literature on the psyche of today's individual.*

**Key words:** literature, religion, faith, psyche, idea, ideology.

Badiiy adabiyot mavzusi ijtimoiy hayot va unda sodir bo'layotgan hodisalar va o'sha davr shaxsi bilan bog'liq holda o'zgarib, yangilanib turishi hech kimga sir emas. Makon, zamon, hodisotlar badiiy adabiyotga, badiiy asarga, shuningdek, inson psixologiyasiga, shaxsiga har qanday zamonda o'z muhrini qo'yib kelgan. Yana shunday bir omil borki, adabiyot bilan doim uzbek bog'likdir. "Bir qarashda adabiyot

va din alohida ikki sohaga tegishlidek ko'rinsa-da, aslida ular bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq va ajratilmasdir, go'yoki bir vujudning ikki a'zosi kabi".<sup>1</sup> Shahzad Latif o'zining ilmiy ishida adabiyotni jismga, dinni jonga qiyoslashi ham fanda yangilik bo'lmasa-da, azaldan adabiyot va din ajralmas birlik sifatida qaralishini yana bir bor tasdiqlaydi. "Qur'on", "Injil" kabi muqaddas Kitoblarda rivoyatlar, hikoyatlarning kelishi, ulardag'i badiiy-tasviriy vositalarning aks etishi, umuman olganda tasvir uslubi badiiy adabiyot obyekti sifatida chuqur o'rganilgan hamda o'rganib kelinmoqda. Bugungi kunda ko'pgina olimlar adabiyotning ayrim janrlari, xususan, she'riyat va drama bevosita diniy marosimlardan kelib chiqqanligini tez-tez ta'kidlaydilar. Bunday qarash adabiyotning barcha janr hamda adabiy turlariga tegishli bo'lmasa-da, asli ruminiyalik diniy olim Mircea Eliade eposning ayrim turlarining kelib chiqishi shamanizm amaliyotiga bog'liqligini aniqladi. "Adabiyotning dinga munosabatining eng muhim va ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biri bu- og'zaki adabiyot ham, yozma adabiyot ham tarixda diniy g'oya va harakatlarni saqlash hamda yetkazish vazifasini bajargan".<sup>2</sup> Umuman din va adabiyot masalasini yaxlit tarzda talqin qilish, ularning nechog'lik bir-biriga bog'liq ekanligini isbotlash, adabiyotni diniy g'oyalarsiz, dindan holi bo'la olmasligini ko'rsatish yo'lidan borgan olimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, g'arb adabiyotshunoslik vakillaridan Redmond James(1), Scott Nathan(2), Shaffer E.S.(3), Sternberg Meir(4), Lewalski Barbara Kiefer(5), Gunn, Giles B.(6), Frye Northrop(7), Bultmann Rudolf(8)3 va boshqa o'nlab olimlarning ilmiy izlanishlarida ushbu masala atroflicha yoritilgan. Sharq adabiyotida diniy g'oyalar esa alohida mavzubo'lib, g'arbdan ko'ra sharq adabiyotida din uzoq yashagan va hozirgi kunda ham yashab kelmoqda. Sharq adabiyotini dinsiz, diniy tafakkursiz tasavvur qilish mushkul masala. Eng qadimgi hind, eron, misr adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, buning yaqqol dalillariga duch kelamiz. Tabiiyki, bu mavzuni to'liq yoritish uchun bizdan ko'p vaqt talab etiladi va maqola mazmunidan uzoqlashish ehtimolini tug'diradi. Shu sababli sharq mumtoz adabiyoti tarixidan bir necha misollar keltirish bilangina cheklanamiz. Sharqda, asosan, islom dini paydo bo'lganidan keyin dinning adabiyotga ta'siri sezilarli darajada ortdi. Albatta, islomgacha bo'lgan davrda ham ta'sir yo'q edi deya olmaymiz (dunyoning yaralishi

1 "Glimpses of Religion in English Literature". Shahzad Latif Chaudhary. American International Journal of Contemporary Research. Vol.3 No. 12; December 2013.

2 "Literature: Literature And Religion". Article of the website <http://encyclopedia.com>

31. "Drama and religion". Cambridge, UK., 1983; 2. "The Poetics of Belief". Chapel Hill, N.C., 1985; 3.

"Kubla Khan" and the Fall of Jerusalem: The Mythological School in Biblical Criticism and Secular Literature, 1770-1880", Cambridge, U.K., 1975; 4. "The Poetics of Biblical Narrative", Bloomington, Ind., 1984; 5. "Protestant Poetics and the Seventeenth-Century Religious Lyric", Princeton, N.J., 1979; 6. "The Interpretation of Otherness: Literature, Religion, and the American Imagination", Oxford, 1979; 7. "The Great Code: The Bible and Literature", New York, 1982; 8. "Jesus Christ and Mythology", New York. 1958.

haqidagi miflar, rivoyatlar, kultlar, hindlarning “Kalila va Dimna”, “Panchatantra” asarlari, zardushtiylarning “Avesto” kitobi va boshqalar). Xususan, sharq badiiy adabiyotida yangi tushunchalar paydo bo‘la boshladi. Hamd (insoniyatni, hayvonot, nabototni- bu dunyoda mavjud jamiiki yaratiqni, borliqni xilqat qilgan Zot- Allohnini madh etuvchi, ulug‘lovchi adabiy parcha), na’t (olamlarning yaralishiga sabab bo‘lgan zot, Ollohnining elchisi va payg‘ambari, rasulimiz Muhammad (s.a.v.)ning ta’rif hamda tavsiflari keltirilgan matn), me’rojnama (Islom dinini olib kelgan Zotning Buyuk Ollohnin huzuriga chiqqan kechalari-Me’roj kechasi tasviri keltirilgan badiiy matn) yozish an’ana tusini oldi. Mumtoz adabiyotning asosini tashkil qilgan “tasavvuf” tushunchasi paydo bo‘ldi. Deyarli har bir asar tasavvuf ta’limoti asosida yaratildi. Shu tariqa din va adabiyot so‘zlari yonma-yon qo‘llana boshladi. Insonlar adabiyot orqali ham dinni anglay boshladi. Kishilar qalbiga adabiyot orqali din singa boshladi.

Yuqorida aytilganidek, adabiyot ijtimoiy hodisa, u hayot bilan hamnafas. Kishilarning o‘y-xayollari, orzu-istiklari, yashash tarzları, diniy e’tiqodlari o‘zgarib borishi bilan adabiyot ham o‘zgarib, yangilanib boraveradi. Yevropada uyg‘onish davri adabiyoti, sharqda mumtoz davri adabiyoti deya bosqichlangan adabiy davrdan keyin biz jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham bir qancha o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Aniqroq to‘xtaladigan bo‘lsak, kishilar ruh bilan emas jism bilan qiziqa boshladi va bu adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Yozuvchilar ham moddiy borliqni tan olishdi va asosiy mavzuga aylantirishdi. Ijtimoiy hayot, davriy tuzum, mavjud qarashlar bir qancha muddat dinni adabiyotdan uzoqlashtirishga muvaffaq bo‘ldi (G‘arb XVII asrdan hozirga qadar, sharq XIX asr oxiri-XX asrlar). Bugungi davrga kelib esa islom dini rivojlanib, kengayib borishi natijasida sharq adabiyotida yana yangi bosqich paydo bo‘la boshladi, yoki dinning adabiyotga qayta ta’siri ko‘rina boshladi, deyish mumkin. Xususan, o‘zbek adabiyotida ham sekin-asta Qur’oni Karim oyatlari, hadislar, diniy rivoyatlar qaytadan uchray boshladi. Masalan, o‘zbek yozuvchisi Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasiga Qur’oni Karim Baqara surasining 217-oyati (“Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar”) hamda “Al jome al-Kabir”da kelgan hadis(“Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahfning vafodor itidir”) larning epigraf qilib olinganligi, musulmon kishi uchun murtad bo‘lishlikdek og‘ir musibat yo‘qligini badiiy talqinda ifodalanishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunning taniqli yozuvchisi Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va Itoat” (roman e’tiqod va iymon masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, asar qahramonlari tiriklik mantig‘i va ruh halovatini har ikki dunyo to‘g‘risidagi mushohadalar yordamida idrok etishga urinadi. Asar qahramoni Akbarning taqdir va

Xudoga isyoni, ammo uzoq izlanish va mashaqqatlardan so‘ng itoatga kelishi falsafiy-psixologik talqinda tasvirlangan), “Muvozanat” kabi romanlarida ham inson psixikasida, ruhiyatida diniy aqidalarning qanday ahamiyat kasb etishi masalalariga biroz bo‘lsa-da to‘xtalib o‘tiladi. Bir qancha vaqt dindan ajragan adabiyotga qayta diniy ruhni kirgizgan ijodkorlardan yana biri sevimli yozuvchimiz Tohir Malikdir. Adibo‘zining islom nuri bilan to‘yingan, butunlay diniy mafkura bilan qamralgan bir qator asarlarini ommaga taqdim etdi. Tohir Malikning “Mehmon tuyg‘ular”, “Iymonlashish umidi”, “Odamiylik mulki” kabi asarlari yuqorida aytilgan asarlar sirasiga kiradi. Xususan, “Odamiylik mulki” kitobi diniy-falsafiy ruhda bitilgan bo‘lib, yozuvchi ushbu asariga muqaddas Qur’oni Karimdan “Isro” surasining 70-oyatini epigraf qilib oladi: “Darhaqiqat, biz Odam bolalarini aziz va mukarram qildik va ularni barru-bahrda- quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo‘ydik hamda ularga halol-pok narsalardan rizq-u ro‘z berdik va ularni O‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”. Ushbu kitob “axloq kitobi” deya nomlanib, unda ilm olish fazilatlari, ota-onalari, silayi rahm masalalari, husni xulq qoidalari, er-xotinlik hamda nikoh shartlari, til talofatlari kabi masalalarga islom nuqtayi nazaridan yondashgan holda qalam yuritiladi. Yuqorida tilga olingan asarlar safiga yana o‘nlab misollarni qo‘sish mumkin. Ammo ushbu asarlardan ham keyinroq yaratilgan, aynan hozirgi zamon o‘quvchilarining shov-shuvli diqqatiga sazovor bo‘lgan asarlardan biri- Akrom Malikning “Xalqa”siga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Asar iymon va kufr, mo‘min va shayton orasidagi kurash, zolimning halokati, mazlumning saodati haqida hikoya qiladi. “Millat o‘zligini tanishga intilar ekan, Xudoni tanishga majbur”, deydi yosh bo‘lishiga qaramay birgina kitobi bilan o‘z o‘quvchilarini to‘play olgan asar muallifi. Yuqorida tilga olinib kelinayotgan din mavzusi nafaqat o‘zbek kitobxonini, balki qardosh xalqimiz turk o‘quvchilarini ham ko‘proq qiziqtirayotgani shu yo‘nalishda yozilgan asarlarning kun sayin kitob rastalaridan kengroq joy egallayotganidan seziladi. Bunday asarlar o‘zbek kutubxonasiha ham shiddat bilan kirib kelmoqda deyish mumkin. Xususan, birgina turk yozuvchisi Omina Shenliko‘g‘lining o‘nlab diniy g‘oya va mafkura asosiga qurilgan asarlari (“Imomning maneken qizi”, “Mariya”, “Nasroniy atirguli”, “Ehromlar qizi Laylo”, “Muslima ayol Yevropada”) o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Shuningdek “O‘gay ona” (Ahmad Lutfi Qozonchi), “Olim yetishtirgan onalar”(Murat Tosun), “Iymon va Huzun” (Said Chamlija), “Alfido” (Onur Qoplon) kabi boshqa ko‘plab badiiy asarlar ham tez sur’atlarda kitobxonalar qo‘liga borib tushayotgani bugungi zamon o‘quvchisining aynan shunday asarlarga bo‘lgan ehtiyoji ortganligini ko‘rsatadi. Shuni hisobga olgan holda bugun adabiyotning yangi bosqichi paydo bo‘la boshlagani yoki yo‘qligi haqida adabiyotshunoslar mushohada qila boshlamoqda. Albatta, buni yangi bosqich deyish

mumkinmi yo‘qmi- vaqt ko‘rsatadi. Bunday asarlarning aksarining umri qancha ekanligi ham bizga hozircha qorong‘u, lekin o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan har qanday asarni tavsiflash, adabiy tahlil chig‘irig‘idan o‘tkazish adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Glimpses of Religion in English Literature”. Shahzad Latif Chaudhary. American International Journal of Contemporary Research. Vol.3 No. 12; December 2013.
2. “Literature: Literature And Religion”. Article of the website <http://encyclopedia.com>
3. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. Hotam Umurov, “Xalq me’rosi”, Toshkent, 2004.
4. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. A. Ulug‘ov, “G‘afur G‘ulom”, Toshkent, 2017.
5. “Qora ko‘z majnun”, Said Ahmad, “O‘zbekiston”, Toshkent, 2013.
6. “Muvozanat”, Ulug‘bek Hamdam, “Sharq”, Toshkent, 2007.
7. “Isyon va itoat”, Ulug‘bek Hamdam, “Yangi asr avlodi”, Toshkent, 2018.
8. “Odamiylik mulki”, Tohir Malik, Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi, 2021.